NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

## *2021- YIL YANVAR-FEVRAL*

Sanoat statistikasi bo‘limi
Tel.: 79-223-33-29

# Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-fevral)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 11 062,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,2 %) ni tashkil etdi.







***B***–*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C***-*Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D***-*Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,* ***E***-*Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 6,7 (bar) % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 9,6 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 0,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning- 14,0 % ga pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 067,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,7 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, *% da*







## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 319,5 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar-fevral oylarida - 0,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 6,2 % (5,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 87,5 % (86,7 %) va quyi texnologiyalisi - 6,0 % (7,1 %)ni tashkil etdi.

| Yuqori texnologiyali | | O‘rta-yuqori texnologiyali | |
|---|---|---|---|
| Ulushi *% da* | | Ulushi *% da* | |
| 0,4 | 2020- y. | 5,8 | 2020- y. |
| 0,3 | 2021- y. | 6,2 | 2021- y. |

| O‘rta-quyi texnologiyali | | quyi texnologiyali | |
|---|---|---|---|
| Ulushi *% da* | | Ulushi *% da* | |
| 86,7 | 2020- y. | 7,1 | 2020- y. |
| 87,5 | 2021- y. | 6,0 | 2021- y. |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,2 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 122,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 81,0 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,5 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 110,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,3 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 105,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,4 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 143,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-fevral oylariga davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2,4 ming m³ azot (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 135,0 % ga o‘sgan), 18,8 ming tonna natriy gidroksidi (kaustik soda) (2,2 bar), 70,2 ming tonna suvsiz ammiak (132,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Natriy gidroksidi (kaustik soda)**




**Suvsiz ammiak**




**Sement**




**Azot**




**Tvorog va tvorogdan mahsulotlar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | 2020- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan o'sish, % da |
|---|---|---|---|
| **Portlandsement,** ming tonna. | 502,0 | 603,0 | 120,1 |
| **Azot,** ming $m^3$ | 1,8 | 2,4 | 135,0 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni**, tonna | 11 178,0 | 10 770,0 | 96,3 |
| **Natriy gidroksidi (kaustik soda),** ming tonna | 8,6 | 18,8 | 218,8 |
| **Kislorod**, ming $m^3$. | 24,2 | 22,6 | 93,4 |
| **Suvsiz ammiak, ming tonna** | 53,1 | 70,2 | 132,2 |
| **Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka),** tonna. | 78,2 | 67,3 | 86,1 |
| **Tvorog va tvorogdan mahsulotlar,** tonna | 13,7 | 14,1 | 102,6 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan azot 135,0 % ga hamda kaustik soda mahsulotining 2,1 bar. ga o'sishi qayd etildi.

Shuningdek, birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka) (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan - 86,1 %) pasayishi kuzatildi.

## Metallurgiya sanoati

*(2021- yil yanvar-fevral)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 79,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 3,8 % ga o‘sgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 81,0 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa 7,0 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 7 553,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-fevral)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 22,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 388,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-fevral)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 212,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-fevral)*




2020- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 0,3 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,4 % ni, fizik hajm indeksi 144,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 500,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 578,2 mlrd. so‘mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,2 % ni) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 86,0 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** *% da*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 2 210,5 | 1 863,1 | -347,4 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 761,7 | 1 089,2 | 327,5 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 96,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 2 678,5 | 10 996,7 | 8 318,2 |
| **Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** mln. so‘m | 7,5 | 1,9 | -5,6 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar,** tonna | 5 200,0 | 4 318,8 | -881,2 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 4,1 bar ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar - 24,9 % hamda xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar - 83,1 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 504,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 99,4 % ni tashkil etdi, uning jami sanoatdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-fevral oylarida 0,01 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib, 30,0 % ni, Karmana tumani 18,6 % ni, Xatirchi tumani 12,7 % ni, Qiziltepa tumani 12,6 % ni hamda Navbahor tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (99,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Qiziltepa tumanida (108,6 %) hamda Navbahor tumanida (102,2 %) qayd etildi.

# Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 504,5 | 100,0 | 99,4 |
| Navoiy sh. | 151,1 | 30,0 | 96,3 |
| Navbahor t. | 37,7 | 7,5 | 102,2 |
| Zarafshon sh. | 29,8 | 5,9 | 100,9 |
| Nurota t. | 33,9 | 6,7 | 99,1 |
| Karmana t. | 94,1 | 18,6 | 96,5 |
| Tomdi t. | 4,9 | 1,0 | 99,7 |
| Konimex t. | 12,3 | 2,4 | 95,2 |
| Uchquduq t. | 13,2 | 2,6 | 101,9 |
| Qiziltepa t. | 63,5 | 12,6 | 108,6 |
| Xatirchi t. | 64,0 | 12,7 | 101,0 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 34,9 % ni, Karmana tumani 22,7 % ni, Xatirchi tumani 9,4 % ni, Nurota tumani 8,6 % ni hamda Qiziltepa tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (95,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navbahor tumanida (101,8 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 301,8 | 100,0 | 95,6 |
| Navoiy sh. | 105,3 | 34,9 | 93,2 |
| Navbahor t. | 20,5 | 6,8 | 101,8 |
| Zarafshon sh. | 14,3 | 4,7 | 99,8 |
| Nurota t. | 25,9 | 8,6 | 97,9 |
| Karmana t. | 68,6 | 22,7 | 91,9 |
| Tomdi t. | 2,5 | 0,8 | 98,6 |
| Konimex t. | 6,5 | 2,2 | 91,5 |
| Uchquduq t. | 5,0 | 1,7 | 100,4 |
| Qiziltepa t. | 24,8 | 8,2 | 101,2 |
| Xatirchi t. | 28,4 | 9,4 | 101,3 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 22,6 % shuningdek, Qiziltepa tumani 19,1 % ni, Xatirchi tumani 17,5 % ni, Karmana tumani 12,5 % ni hamda Navbahor tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Qiziltepa tumanida (114,0 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 202,7 | 100,0 | 105,6 |
| Navoiy sh. | 45,8 | 22,6 | 104,3 |
| Navbahor t. | 17,2 | 8,5 | 102,6 |
| Zarafshon sh. | 15,5 | 7,7 | 101,9 |
| Nurota t. | 8,0 | 4,0 | 102,9 |
| Karmana t. | 25,5 | 12,5 | 111,4 |
| Tomdi t. | 2,4 | 1,2 | 100,9 |
| Konimex t. | 5,8 | 2,9 | 99,6 |
| Uchquduq t. | 8,2 | 4,0 | 102,8 |
| Qiziltepa t. | 38,7 | 19,1 | 114,0 |
| Xatirchi t. | 35,6 | 17,5 | 100,8 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 203,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

# Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 11 062,2 | 100,0 | 108,1 |

| | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 9 461,3 | 85,5 | 107,9 |
| Navbahor t. | 94,7 | 0,9 | 112,1 |
| Zarafshon sh. | 32,3 | 0,3 | 102,4 |
| Nurota t. | 38,6 | 0,3 | 103,5 |
| Karmana t. | 1 122,5 | 10,1 | 101,5 |
| Tomdi t. | 5,3 | 0,05 | 102,6 |
| Konimex t. | 12,8 | 0,1 | 102,1 |
| Uchquduq t. | 33,9 | 0,3 | 104,4 |
| Qiziltepa t. | 76,0 | 0,7 | 106,3 |
| Xatirchi t. | 184,8 | 1,7 | 110,7 |

**Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati** *% da*

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining viloyat ko'rsatkichidan yuqori, Navbahor tumaniga (2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 112,1 %) hamda Xatirchi tumaniga (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 110,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qiziltepa tumanida ( 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 108,6 %), Navbahor tumanida ( 102,2 %), Uchquduq tumanida (101,9 %) hamda Xatirchi tumanida (101,0 %) sezilarli darajada oshdi.

**Navoiy viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da**

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 85,5 %) hamda Karmana (10,1 %), Xatirchi (1,7 %), Navbahor ( 0,9 %), Qiziltepa ( 0,7 %), tumanlari  hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Tomdi ( 0,05 %), Uchquduq ( 0,3 %), Nurota (0,3 %), Konimex (0,1 %) tumanlari hamda Zarafshon ( 0,3 %) shahri hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.






## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 528,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Konimex (100,0 %), Nurota (99,5 %), Qiziltepa (79,1 %), Navbahor (41,9 %) tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (97,7 %) ni tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy shahrida (1,1 %), Karmana (12,1 %), Xatirchi (35,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxona-larining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

*(2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatimizda 3 360 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda,shundan 742 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,1 %) Navoiy shahriga, 554 tasi (16,5 %) Karmana tumaniga, 425 tasi (12,6 %) Xatirchi tumaniga hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




## Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda

*(2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra)*




2021- yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 147 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 24 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 16,3 %) Karmana tumanida, 24 tasi (16,3 %) Xatirchi tumanida, 21 tasi (14,3 %) Navoiy shahrida, 21 tasi (14,3 %) Nurota tumanida, 17 tasi (11,6 %) Zarafshon shahrida, 12 tasi (8,2 %) Uchquduq tumanid, 10 tasi (6,8 %) Navbahor tumanida, 8 tasi (5,4 %) Tomdi tumanida hamda 8 tasi (5,4 %) Qiziltepa tumanida tashkil etildi.